

**CHIGITLI PAXTANI TOZALASH JARAYONIDA NAMLIK TASIRIDA  
SIFAT KO'RSATKICHLARINI O'ZGARISHI**

*Baxodir Ergashov*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi*

*Nurqulov Muhammadqodir*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*25-MSMSM-21guruh talabasi*

*Temirov Zafarbek*

*Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*25-MSMSM-21 talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida uning namligi o'zgarishini tozalash samaradorligi, umumiyligining nuqsonlarning miqdoriga qaydarada ta'sir qilishini tadqiq qilish uchun turli paxta navlaridan na'munalar olindi va ular ustida tajribalar o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** Umumiy ifloslik miqdori, quritish jarayoni, tozalash jarayoni, seleksion nav, sanoat navi, chigal tola, murakkab chigal tola.

**Аннотация:** В данной статье были взяты образцы различных сортов хлопчатника и проведены эксперименты с целью исследования влияния изменения влажности хлопка-сырца в процессе обработки, эффективности очистки и количества общих дефектов.

**Ключевые слова:** общая примесь, процесс сушки, процесс очистки, отборный сорт, технический сорт, спутанное волокно, сложноспутанное волокно.

**Abstract:** In this article, samples of different cotton varieties were taken and experiments were carried out in order to investigate the effect of changes in the moisture content of seed cotton during processing, cleaning efficiency, and the amount of total defects.

**Key words:** Total impurity, drying process, cleaning process, selection grade, industrial grade, tangled fiber, complex tangled fiber.

Paxta tozalash korhonalarining birinchi navbatdagi vazifasi paxta maydonlaridan terib olingan chigitli paxtani maksimal darajada yaxshi tozalash, shuning bilan birgalikda undan olinadigan tolalarning shikastlanish darajasini iloji boricha kamaytirish hisoblanadi. Bu omillarni hisobga olgan holda mamlakatimizdagi paxta tozalash korhonalari bosqichma-bosqich eng zamонави uskunalar bilan jihozlanmoqda. Bunday choralar qo'llanishiga qaramay chigitli paxtaning ba'zi ko'rsatkichlari maksimal tozalash imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi.


Qo‘llanilayotgan jihozlar har qancha zamonaviy bo‘lmasisin xom ashyoni qayta ishlash uchun namlik miqdori juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, chigitli paxtada namlik miqdori yuqori bo‘lsa, iflosliklardan tozalanishi qiyinlashadi, tola tarkibidagi chigal tola miqdori, murakkab chigal tola miqdori, iflosliklar miqdori ortadi, natijada tolanning va undan olinadigan mahsulotlarning sifat sifat ko‘rsatkichlari yomonlashadi. Undan tashqari, chigitli paxta tarkibida namlik miqdori me’yoridan past bo’lishi tolanning fizik-mexanik xossalalarini pasayishiga olib keladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun korhonalarida chigitli paxtaning namligini standartlarda ko‘rsatilgan optimal namlik miqdorini ta’minlash kerak bo‘ladi.

Tozalash samaradorligiga chigitli paxtaning namligidan tashqari seleksion navi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki har bir seleksion navdagi chigitli paxtaning o‘ziga hos hususiyatlari mavjud.

Paxta dalalaridan terib olingan chigitli paxta paxta tozalash korhonalarida namligi va iflosligi bo‘yicha qabul qilinadi. Agar namlik yuqori bo‘lsa uni quritish tozalash ishlari olib boriladi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar tozalash samaradorligiga qanchalik ta’sir qilishini tekshirib ko‘rish maqsadida Namangan viloyatida rayonlashtirilgan ikki xil sanoat seleksion navli chigitli paxtalar ustida nazorat o‘tkazildi va natijalarni jadvalga kiritildi.

| Ko‘rsatkichlari  | Navi       |             |
|--|------------|-------------|
|  | Andijon-36 | Namangan-77 |
| G‘aramdagagi chigitli paxtaning namligi, %                 | 11.2       | 11.8        |
| Umumiyligining ifloslik miqdori, %                         | 9.1        | 9.6         |
| Quritish jarayonidan keyingi chigitli paxtaning namligi, % | 9.3        | 8.8         |
| Umumiyligining ifloslik miqdori, %                         | 6.1        | 6.6         |
| Tozalash jarayonidan keyingi chigitli paxtaning namligi, % | 8.8        | 8.4         |
| Umumiyligining ifloslik miqdori, %                         | 1.05       | 0.85        |



Chigitli paxtaning namligi va navining tozalash samaradorligiga ta'siri gistogrammasi (%)

Olingen natijalardan ko'riniq turiptiki Andijon-36 seleksion navli chigitli paxtaning iflosligi quritish jarayonidan keyin 33% ga, tozalash jarayonidan keyin esa 88.5% ga kamaygan bo'lsa, Namangan-77 seleksion navli chigitli paxtaning iflosligi quritish jarayonidan keyin 31% ga, tozalash jarayonidan keyin esa 91% ga kamaygani aniqlandan. Bundan kelib chiqadiki yuqoridagi ko'rib o'tilgan navdagi chigitli paxtalarda quritish va tozalash jarayonlaridan keyin tozalash samaradorligi Namangan-77 seleksion navli chigitli paxtaniki Andijon-36 ga qaraganda yuqoriroq ekan.

Chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida me'yordan yuqori namlik paxta toiasi tarkibida nuqson va chiqindilar ortishiga sabab bo'ladi.

Agar chigitli paxtaning namligi me'yordan yuqori bo'lsa, tola tarkibidagi chigal tola, murakkab chigal tola, iflosliklar miqdori ortib, po'stloqli tola, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdori kamayadi. Chigitli paxta qanchalik ko'p texnologik jarayonlardan o'tkazilsa, shuncha iflosliklardan yaxshi tozalanadi, lekin tarkibidagi urilgan yoki jarohatlangan chigitlar, chigal va murakkab chigal tola, po'stloqli tola miqdori ortib ketadi. Bundan tashqari namlikning me'yordan past bo'lishi hisobiga po'stloqli tola va tugunchalar, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdorining oshishi hisobiga paxta toiasi tarkibidagi umumiyy nuqson va chiqindilar miqdorining ortishiga sabab bo'ladi. Ayrim seleksion navdagi chigitli paxtaning tozalash samaradorligi past bo'ladi.

Paxta tolasining narxi ifloslik miqdori bo'yicha sinflariga qarab belgilanadi. Paxta toiasi tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdori me'yordan yuqori bo'lsa, tolanning sifat ko'rsatkichlari yomonlashadi, hamda undan olinadigan iplarning fizik-mexanik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Paxta toiasi ifloslik miqdoriga qarab, bir qator sinflarga, ya'ni oliy, yaxshi, o'rta, iflos va yomonlarga bo'linadi va shu sinflari bo'yicha narxlari turlicha bo'ladi.

Namuna sifatida olingen navlarning tolalari tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdorining o'zgarishi aniqlandi.

Bunga ko'ra Namangan-77 seleksion navli paxta tolasining g'aramda turgan holatidagiga nisbatan umumiyy nuqson va chiqindilar miqdori 38.3% ga, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdori 35.1% ga kamaydi, po'stloqli tola miqdori 15.8% ga, tugunchalar miqdori 28.8% ga oshdi, iflosliklar miqdori 61.9% ga kamaydi, Andijon-36 seleksion navli paxta tolasining tarkibidagi umumiyy nuqson va chiqindilar miqdori 38,5% ga, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdori 47,8% ga kamaydi, po'stloqli tola miqdori 21,8% ga, tugunchalar miqdori 36.1% ga oshdi, iflosliklar miqdori 51.8% ga kamaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki paxtani dastlabki ishlash jarayonidan so'ng Namangan-77 seleksion navli paxta toiasi tarkibidagi umumiyy nuqson va chiqindilar

miqdori bo‘yicha tozalanish samaradorligi Andijon-36 seleksion navli paxta tolasining nuqsonlardan tozalanish samaradorligiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bakhodir, E. (2021). Effects of Change on Cotton Harvesting Physical and Mechanical Performance. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(7), 9-13.
2. Mirkhojaev, M. M., & Ergashov, B. A. O. (2020). Analysis of determination of cotton field quality as a result of changes in technological processes. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research, 9(6), 38-44.
3. Baxodir, E., Azimjon, M., & Hayitali, O. (2022). PAXTANI YETISHTIRISHDAGI IQLIMIY SHAROITNI UNDAN OLINADIGAN TOLA SIFAT KO ‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 89-94.
4. Ruxiddinovna, N. Y., & Ayubjanovna, T. G. (2022). GENERAL DEVELOPMENT OF EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS METHODOLOGICAL PRINCIPLES. Journal of Positive School Psychology, 8560-8566.
5. Baxodir, E., Hayitali, O., & Ramshid, A. (2022). IPAK QURTINI BOQISH SHAROITINI OLINADIGA IPAK MAHSULOTLARI SIFAT KO ‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 95-100.
6. Bakhodir, E., & Mastona, N. (2022). Product Quality of Regulatory Documents Place for Improvement. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(3), 71-74.
7. Baxodir, E., & Ramshid, A. (2022). KO ‘MIR MAHSULOTLARINING NAVLARI BO ‘YICHA QIYOSIY TAHLILI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 101-105.
8. Baxodir, E., & Asadbek, A. (2022). GIDRAVLIK VA MEXANIK PRESSLAR YORDAMIDA SUV TASHISH MASHINALARINING MUVOZANATDAN CHIQIB KETISHINI OLDINI OLİSH USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1-4.
9. Bakhodir, E., & Ramshid, A. (2022). Comparative Analysis of Coal Products Extracted From Central Asian Coal Deposits. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(5), 9-12.